

IJTIMOYIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI

Samiyeva Gulnoza Toxirovna

QarDTU dotsenti

Sharopova Mohigul Hamdamovna

KIU magistratura talabasi

Jahonda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda, buning uchun davlatning zimmasida dolzarb vazifalarni yechish masalasi turibdi. Dunyoda urbanizatsiya jarayoni jadal o‘sayotgan davrda infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda qishloq xalqining turmush farovonligini oshirish masalasi ham eng oliy maqsadlar qatorida turibdi.

Infratuzilma xizmatlari turini ko‘paytirish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish davlatning ijtimoiy siyosati bo‘lish barobarida iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlikni oshirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ayniqsa, sifatli ta‘lim, sog‘likni saqlash, maishiy xizmat ko‘rsatishni ta‘minlashga qaratilgan innovatsion boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning bergan bahosiga ko‘ra, bugun xorij davlatlarida ijtimoiy sohalar rivojiga davlat byudjetining 1/3 qismi sarflanmoqda¹. Ijtimoiy infratuzilma sohalarini boshqarish, uning maqsadli rivojlanish yo‘nalishlari va mazmuni bo‘yicha jahonda AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Yevropa yetakchilik qilmoqda.

Global iqtisodiy muammolarni hal qilishda ijtimoiy infratuzilmaning tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini innovatsion asosda tashkil etish, takomillashtirish muhim. Ayniqsa, davlat ijtimoiy siyosatida ta‘lim siyosati, uy-joy bilan ta‘minlash, maishiy xizmat ko‘rsatish hamda sog‘liqni saqlash bo‘yicha muammolarning qishloq aholisi uchun samarali yechimini tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha tizimli ravishda islohotlar amalga oshirilyapti. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2022 yildagi PQ-465-sonli “2023-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish, hududlarda, ayniqsa mahallalarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yanada rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush darajasini

¹<http://mirznanii.com/a/257730/rol-promyshlennosti-v-mirovom-khozyaystve;www.wb.org;https://stud-files.net/>

oshirish hamda tadbirkorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha maqsadli vazifalarni amalga oshirish belgilangan².

Ijtimoiy infratuzilmalar va ularni rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirish masalalari xorijlik olimlar Y.Shumpeter, D.Norton, P.Druker, P.Dovling, M.Porter, A.Rayzberg, R.Kaplan kabi olimlarning tadqiqot ishlarida, MDH mamlakatlari olimlaridan A.I.Gavrilov, N.N.Nekrasov, A.G.Sinelnikov, J.T.Toshenko, T.N.Arbusova, S.G.Vajenin, A.G.Granberg, A.D.Yeremenko kabilarning asarlarida aks ettirilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.Gulyamov, N.Yo'ldoshev, B.G'oyibnazarov, A.Rasulov, SH.Shodmonov, SH.Zaynutdinov, A.Sharipov, S.Xamrayeva, SH.Yuldashevalar tomonidan ijtimoiy infratuzilmalar rivojlanishining nazariy va amaliy tomonlari yuzasidan qator tadqiqotlar olib borishgan.

Infratuzilmaning yaratilishi moddiy ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq hisoblanadi, shuningdek uning rivojlanishi xizmat ko'rsatiladigan va integratsiyalanadigan tarmoqlarda yangi ishlab chiqarish va faoliyat turlarini vujudga keltiradi. Ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sishi jamiyatda katta miqdordagi resurslarni aholiga xizmat ko'rsatish uchun bo'shatadi. Infratuzilmaning vujudga kelishi jamiyatda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanayotganini bildiradi, natijasi sifatida uning tarkibidagi tarmoqlar ichki iqtisodiy umumiylikini hamda ma'lum bir vazifalarni ado etishi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy infratuzilma tarkibi quyidagilardan iborat:

- Uy-joy kommunal xo'jaligi;
- Sog'likni saqlash;
- Maorif (ta'lim va mutaxassis-professional kadrlarni o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish)
- Aloqa va kommunikatsiyalar, axborotlashtirish xizmatlari;
- Maishiy xizmat;
- Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- Fan va madaniyat;
- Jamoat tashkilotlari;
- Sport, sog'lomlashtirish va dam olish maskanlari;
- Aholini tashish (yo'lovchi transport);
- Jamoat tartibini saqlash va mudofaa;
- Ijtimoiy ta'minot va h.k.

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 30.12.2022 йилдаги ПҚ-465-сонли "2023-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори

Ijtimoiy infratuzilma tarkibiga ijtimoiy-maishiy va ijtimoiy ma'naviy infratuzilmalarni qamrab olgan. Ayniqsa, qishloq aholisi uchun ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish davlatimiz ijtimoiy siyosati hal etishi lozim bo'lgan vazifalardan biridir. Ijtimoiy infratuzilma obyektlari o'z faoliyatini olib borish jarayonida xizmat ko'rsatish bilan bir vaqtda tovar ishlab chiqarish faoliyatini ham qamrab oladi. Bunda asosan aholi turmush darajasini yaxshilash, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish maqsadlari ilgari suriladi³.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish darajasini baholash uchun aholining hayot sifatini yaxshilash, uning farovonligi va uzoq umr ko'rish darajasini oshirish, sog'lom, ijodiy faol avlodni shakllantirish va qayta tiklashga qaratilgan ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalarini inobatga olishi kerak. Jumladan, aholini sifatli uy-joy bilan ta'minlash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish darajasi va sifatini oshirish, inson hayotining madaniy sohasini yaratish, hayot va mehnatning ekologik sharoitlarini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish, yoshlar va pensionerlarning ijtimoiy himoya kafolatlarini yaratish kabi ijobiy natijalarga erishish ushbu sohaning tizimli baholash ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi⁴.

Tadqiqotlar olib borilayotgan hududiy ijtimoiy infratuzilma tarkibida aholi turmush darajasini yaxshilashga yo'naltirilgan sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy va kommunal xo'jaligi, obodonlashtirish, bandlik va boshqa ko'plab xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyati mujassam qilinmoqda. Ularning barchasi eng avvalo davlatimiz hukumati tomonidan chiqarilayotgan huquqiy-meyoriy hujjatlar, asosan strategiyalarda aks ettirilmoqda.

Ijtimoiy siyosat – inson hayoti faoliyati barcha sharoitlari yig'indisini, moddiy va ma'naviy ne'matlarni kafolatlovchi ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, pensiya ta'minoti, uy-joy kommunal xo'jaligi, jismoniy tarbiya va sport, maishiy va ijtimoiy himoya sohasidagi davlat siyosatining ustuvor jihatlari aks etgan siyosatdir.


Aholi farovonligini bir xil ta'minlash imkonini bermayotgan faoliyat ham aynan – ijtimoiy infratuzilma yohud sifatli xizmat ko'rsatishning hududlarda turli tumanligi. Qishloq aholisi ham ijtimoiy infratuzilma xizmatlaridan sifatli foydalanishga haqli bo'lganliklari kabi ular uchun ham islohotlarning teng ketishi birlamchi masaladir.

³ Samiyeva, G. T. (2022). The Most Important Aspects of Studying the Living Standards of the Population. [Academic Journal of Digital Economics and Stability, Volume 16](#), April 2022, Pages 79-83

⁴ Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna, and B. I. Xaydarov. "The Importance of Self-Employment and Self-Reliance in Improving the Well-Being of the Population Self-Employment." *Journal of Marketing and Emerging Economics* 2.5 (2022): 36-41.

ADABIYOTLARRO‘YXATI:

1. <http://mirznanii.com/a/257730/rol-promyshlennosti-v-mirovom-khozyaystve;www.wb.org;https://stud-files.net/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2022 yildagi PQ-465-sonli “2023-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
3. Samiyeva, G. T. (2022). The Most Important Aspects of Studying the Living Standards of the Population. [Academic Journal of Digital Economics and Stability, Volume 16](#), April 2022, Pages 79-83
4. Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna, and B. I. Xaydarov. "The Importance of Self-Employment and Self-Reliance in Improving the Well-Being of the Population Self-Employment." *Journal of Marketing and Emerging Economics* 2.5 (2022): 36-41.



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi

CERTIFICATE

FOR PARTICIPATION

Samiyeva Gulnoza Toxirovna

IJTIMOY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH AHOLI
FAROVONLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI

**MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND
INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS**



15.05.2025

DATE



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi

CERTIFICATE

FOR PARTICIPATION

Sharopova Mohigul Hamdamovna

IJTIMOY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH AHOLI
FAROVONLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI

**MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND
INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS**



15.05.2025

DATE

